

Опубликовано на Aloqabank.uz (<http://aloqabank.uz>)

# Aloqabankdan kredit rasmiylashtirish yanada qulayroq

Endilikda iste'mol krediti, avtokredit, overdraft, mikroqarz va jismoniy shaxslar uchun boshqa kredit turlarini rasmiylashtirish jarayoni yanada osonlashtirildi.

2018 yil 1 avgustdan jismoniy shaxslar uchun kredit rasmiylashtirish uchun quyidagi hujjatlar to'plami zarur bo'ladi:

- kredit miqdori, muddati, foydalanish maqsadi va taklif qilinayotgan kredit ta'minoti bayon qilingan qarz oluvchi tomonidan imzolangan **ariza**;
- qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchi, jismoniy shaxs bo'lgan kafil) ning **pasport nusxasi**;
- qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchi, jismoniy shaxs bo'lgan kafil) ning ish joyidan oxirgi 1 yillik **ish haqi to'g'risida ma'lumotnoma** (ushbu ma'lumotnomada lavozim, STIR va jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i raqami ko'rsatilishi lozim);
- **kredit ta'minoti** bilan bog'liq hujjatlar;

Aloqabankdan kreditlarni qulay shartlarda tez va oson rasmiylashtiring va qisqa vaqtda natijalar bilan zavqlaning!